Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Tarix va arxeologiya fanlari” yo‘nalishi		
№	**Amaliy loyiha mavzusi**	**Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija**
	O‘zbekistonning raqamli etnokonfessional atlasini yaratish 	**Tadqiqotning shakli:** Amaliy. **Ilmiy-tadqiqot natijalari:** - O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlash, maqsadida yurtimizda yashayotgan millatlar va elatlar moddiy va nomoddiy madaniyatiga bag‘ishlangan O‘zbekistonning raqamli etnokonfessional atlasini yaratishdi; - O‘zbekistonning raqamli etnokonfessional atlasi loyihasida raqamli milliy va etnokonfessional atlasni ishlab chiqish, hududiy xususiyatlar, diniy konfessiyalar, diniy obyektlar (ibodatxonalar, ziyoratgohlar va hk.) va ta’lim muassasalari, milliy madaniy markazlar tarixi va faoliyatiga oid ma’lumotlar, foto va video materiallar, axborot-tahliliy ma’lumotlarning raqamli xaritalaridan tayyorlanadi. Shuningdek, O‘zbekistonda yashovchi har bir millat haqida 350-400 so‘zdan iborat (etnik tarixi, joylashishi, an’analari va hokazolar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham o‘rin oladi. Bu esa mamlakatimiz hududida yashovchi millatlar va diniy konfessiya vakillari haqida ma’lumotlarni tez va oson olish imkonini beradi. Shuningdek, yig‘ilgan statistik, arxiv va dala ma’lumotlarining tizimlashtirilishi va tahlil qilinishi natijasida O‘zbekistonning etnokonfessional qiyofasi bilan bog‘liq ilmiy-amaliy tadqiqotlardagi bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi; - Respublika va xorijiy ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekiston xalqlarining madaniyati va an’analarini keng targ‘ib qilish, etnoturizm, ziyorat turizmi kabi yo‘nalishlar aks etgan “O‘zbekiston xalqlari madaniyati va an’analari” nomli videoroliklar tayyorlash hamda xalqaro, milliy turizm portallarida keng targ‘ib etish; - xorijiy universitetlar (Kaliforniya universiteti, AQSH, O‘rta Osiyoni tadqiq etish fransuz instituti, Qirg‘iziston, Italiyadagi Neapol sharqona universiteti) bilan hamkorlikda O‘zbekistondagi turli millat va elatlarning o‘ziga xos madaniyati hamda etnokonfessional holatini o‘rganish va taqdimotlar tashkil etish.. **Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Tadqiqot natijalari Madaniyat vazirligi tasarrufidagi ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida sinovlardan o‘tkaziladi.. **Ilmiy natijalarni chop etish:** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. **Izoh:** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Madaniyat vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.